



Qoraqalpog'iston Respublikasida Demografik holat

2025- yilning yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-aprel holatiga Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni **2 035,1** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,3** foizga ko'paygan. 2025-yil yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **8,8** ming nafarni, vafot etganlar **2,3** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **6,5** ming kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **31** kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **845** kishini, qayd etilgan nikohlar **3,1** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,5** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 035,1	<i>ming kishi</i>
Tug'ilishlar soni	8,8	<i>ming kishi</i>
O'lganlar soni	2,3	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	31	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	845	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	3,1	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	0,5	<i>ming birlik</i>

II. Doimiy aholi soni



Qoraqalpog'iston Respublikasida doimiy aholi soni 2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra **2 035,1** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26,3** ming kishiga, yani **1,3** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **992,6** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **48,8** %), qishloq joylarda esa **1 042,5** ming kishi (**51,2** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 012,7** ming kishini (**49,8** %), erkaklar esa **1 022,4** ming kishini (**50,2** %) tashkil etmoqda.


Doimiy aholi soni

(1-aprel holatiga, ming kishi)

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 008,8	2035,1	101,3
Nukus sh.	340,6	346,1	101,6
tumanlar:			
Amudaryo	212,9	216,3	101,6
Beruniy	205,9	209,8	101,9
Bo'zatov	21,9	21,8	99,5
Qorao'zak	54,4	54,7	100,6
Kegeyli	75,0	75,5	100,7
Qo'ng'iro't	136,3	137,6	101,0
Qonliko'l	53,9	54,5	101,1
Mo'ynoq	33,7	33,9	100,6
Nukus	54,2	55,2	101,8
Taxiatosh	76,9	77,5	100,8
Taxtako'pir	38,9	38,9	100,0
To'rtko'l	229,5	233,2	101,6
Xo'jayli	129,1	130,3	100,9
Chimboy	115,9	116,6	100,6
Shumanay	58,1	58,6	100,9
Ellikqal'a	171,6	174,6	101,7

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **12,2** kishi to'g'ri kelgan. (2024-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **12,1** kishi).

Aholi zichligi




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **8,8** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti **17,5** promilleni tashkil etdi. Tug'ilishlar soni 2025-yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,7** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **2,3** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2024-yilning mos davrida ham **2,3** ming kishini tashkil etdi.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Qoraqalpog'iston Respublikasida tirik tug'ilganlar soni **8,8** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **4,5** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,3** %), qiz bolalar soni **4,3** ming kishini (**48,7** %) tashkil etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida vafot etganlar soni **2,3** ming kishini, shundan erkaklar **1,3** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,6** %), ayollar **1,0** ming kishini (**44,4** %) tashkil etdi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3,1** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,2** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,7** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **0,5** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etdi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Qoraqalpog'iston Respublikasida nikoh tuzganlar soni **3,1** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,3** ming birlikni, qishloq joylarida **1,8** ming birlikni tashkil etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida nikohdan ajralishlar soni **0,5** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,3** ming birlikni, qishloq joylarida **0,2** ming birlikni tashkil etdi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yilning yanvar-martning oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **3 052** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **3 021** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **31** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **4 109** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **3 264** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **845** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 052	3 021	31	4 109	3 264	845
Nukus sh. tumanlar:	1195	1188	7	842	610	232
Amudaryo	173	164	9	306	274	32
Beruniy	136	136	-	230	194	36
Bo'zatov	26	26	-	104	87	17
Qorao'zak	16	16	-	170	162	8
Kegeyli	130	128	2	241	225	16
Qo'ng'iro't	120	117	3	223	122	101
Qonliko'l	114	114	-	114	102	12
Mo'ynoq	25	25	-	76	61	15
Nukus	239	238	1	187	168	19
Taxiatosh	84	84	-	140	76	64
Taxtako'pir	56	54	2	152	98	54
To'rtko'l	175	172	3	231	221	10
Xo'jayli	218	215	3	390	247	143
Chimboy	136	136	-	346	296	50
Shumanay	69	68	1	153	133	20
Ellikqal'a	140	140	-	204	188	16

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi





VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi
Tel: 61 222-76-57

Ijrochi:

Z. Berdiyeva
71 203-80-00 (1251)

Manzil:

230103, Nukus,
A. Dosnazarov ko'chasi,
97 a-uy Pochta:
info@qrstat.uz
